

ZARMED universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi, PHd Sodiqova Aziza Hayitovna taqrizi ostida

## BOSHLANG’ICH SINFLARDA TA’LIM MAZMUNINI LOYIHALASH

*Haydarqulova Mahliyo Zafarovna*

*Zarmed universiteti “Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi o’qituvchisi*

*Email: [mahliyohaydarqulova@gmail.ru](mailto:mahliyohaydarqulova@gmail.ru)*

*ORCID ID: 0009-0004-2945-0619*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’limni axborotlashtirish sharoitida boshlang’ich ta’limni tashkil etish yo’llari, usullari va boshlang’ich ta’limda zamonaviy darsni loyihalash tamoyillari olib berilgan. Ularning o’zaro bog’liqligi va amalga oshirish usuli aniqlanadi, boshlang’ich ta’limda zamonaviy darsni loyihalashda o’quv faoliyati nazariyasi kontseptsiyasining ahamiyati asoslanadi. Ushbu tamoyillarga rioya qilgan holda boshlang’ich ta’limda zamonaviy darsni loyihalashning dolzarbligi va unga qo'yiladigan talablar sanab o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** axborotlashtirish, tamoyil, boshlang’ich sinf, elektron vosita, lohiyalash, o’quv faoliyati, konseptsiya, ta’lim mazmuni.

## DESIGN OF EDUCATIONAL CONTENT IN THE CONTEXT OF INFORMATIZATION OF PRIMARY EDUCATION

*Haydarkulova Mahliyo Zafarovna*

*is a doctoral student of the Bukhara State Pedagogical Institute*

**Annotation:** this article reveals the ways, methods of organizing primary education in the context of informatization of education and the principles of designing a modern lesson in primary education. Their relationship and method of implementation are determined, the importance of the concept of the theory of educational activity in the design of a modern lesson in elementary education is based. Following these principles, the relevance of the design of a modern lesson in primary education and the requirements for it are listed.

**Keywords:** informatization, principle, primary class, electronic medium, lohying, educational activities, concept, educational content.

## ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ИНФОРМАТИЗАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

*Хайдаркулова Махлиё Зафаровна*

*докторант Бухарского государственного педагогического института*

**Аннотация:** В данной статье раскрыты пути, методы организации начального образования в условиях информатизации образования и принципы проектирования современного урока в начальном образовании. Определяется их взаимосвязь и способ реализации, обосновывается значение понятия теории учебной деятельности в проектировании современного урока в начальном образовании. В соответствии с этими

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

принципами перечислены актуальность оформления современного урока в начальном образовании и требования к нему.

**Ключевые слова:** информатизация, принцип, начальный класс, электронный носитель, локализация, учебная деятельность, понятие, образовательное содержание.

Boshlang'ich ta'limni bir bino misolida ko'radigan bo'lsak, bu binoning asosini qo'yuvchi quruvchisi boshlang'ich maktab o'qituvchisidir. O'qituvchilarning katta qismi boshlang'ich ta'limgarayonida kompyuter va uning asosida yaratilgan texnologiyalardan foydalanishi pedagogik ishlarni osonlashtirishi mumkin. Amaliy tajribani o'rganish shuni natijasi ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limgarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish ommaviy hodisa emas. Shu bilan birga, novator o'qituvchilar kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ayrim yo'nalishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda tajriba to'pladilar. Boshlang'ich maktab o'qituvchilarini kasbiy faoliyatda axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlashning mazmuni va texnologiyasini ishlab chiqildi. Boshlang'ich ta'limgarayonida bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanish yosh o'quvchilarni texnologik tayyorlashning sifat jihatidan yangi holatiga olib keladi. O'qituvchilar faoliyatini "elektron vositalar" ta'sirida qayta tashkil etish integratsiya jarayonlari bilan birga olib boriladi. Axborot texnologiyalari vositalarini an'anaviy o'qitish vositalari bilan birlashtirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining mehnat mashg'ulotlarini ma'lumot bilan birlashtirishga imkon beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda fanlarni o'qitish jarayonida ta'limgarayonida zamonaliviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari bor. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilanish, axborot texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko'rish, o'rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma'lumotlarni o'rganib borish, axborot texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda mediamadaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limgarayonida axborotlashtirish — bu hayotdan yangi usullarni izlash jarayonidir. Ta'limgarayonida axborotlashtirish bu butun ta'limgarayonini samarali tashkil etishdir. Bunda asosan fanning so'nggi yutuqlariga tayangan holda har bir o'quvchi va umumiyligi jamoanining o'zlashtirganlik faoliyati natijalari, ta'limgarayoniga axborot texnologiyalarini samarali tatbiq etish darajasi aniqlanadi. Ta'limgarayonida axborotlashtirish — bu kompyuter texnikasi va axborot texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanish, ta'limgarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishda o'qituvchilarning malakasini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlash zarur.

Boshlang'ich maktabda o'quv jarayonini axborotlashtirishni kompleks ravishda amalga oshirish nazariyasi va amaliyotidagi qiyinchiliklar ob'ektiv mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklar bilan birga keladi:

- axborotlashtirishni rivojlantirishga davlat investitsiyalarining kutilayotgan natijalari va boshlang'ich ta'limgarayonida amaliyotidagi haqiqiy o'zgarishlar o'rtasida;
- boshlang'ich ta'limgarayonida axborotlashtirish zarurati va ushbu jarayonning nazariy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasida;

- boshlang'ich mактабдаги та'lим jarayonining xусусиятларини o'zgaruvchan boshlang'ich paradigmasi va mayjud ta'lим va tarbiya an'analariga muvofiq o'zgartirish zarurati o'rtasida;

- boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanishga tayyorligi va uni shakllantirishning didaktik va uslubiy ta'minotining yetarli emasligi o'rtasida;

- axborotlashtirish sharoitida o'zgarib turadigan ta'lим jarayoni natijalarini baholashda yangi yondashuvlarga ehtiyoj va ularni baholashning o'rnatilgan amaliyoti o'rtasida.

Axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lим jarayonigakeng ko'lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

o'quv va ilmiy axborotlarni talaba hamda professor – o'qituvchilar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;

elektron o'quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o'zgartirishning tezlashtirilishi;

ta'lим jarayonining qiziqarli va samarali tashkil etilishi;

talabalarning mustaqil ta'lим olishlari uchun qo'shimcha vaqtning ajratilishi va boshqalar.

Jahon tajribasi shuni ham ko'rsatmoqdaki, axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonida qo'llashning istiqbollari bo'lib multimedia - texnologiyalar asosida interfaol ma'ruzalarni tashkil qilish hisoblanadi.

Aniqlangan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish zarurati, boshlang'ich maktab o'quv jarayonini axborotlashtirishga kompleks yondashuvni nazariy asoslash, ishlab chiqish va o'quv amaliyotiga tatbiq etishni taqazo etadi. Boshlang'ich maktabda o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorligini shakllantirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Ta'lим – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro kirishuvi asosida shakllanadigan tashkiliy jarayon. Uning markazida o'qitish va o'qish faoliyatining bir-biriga o'zaro ta'siri yotadi. Loyihaviy ta'lим vositasida boshlang'ich sinf darslarida ta'lим subyektlari faoliyatini modellashtirishda o'qitish va o'qish faoliyatini ajratish, ularni to'g'ri tashkil qilish, faoliyatni amalga oshirish jarayonida loyihalash imkoniyatlaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihaviy ta'lим vositasida boshlang'ich sinf darslarida o'quv faoliyatini tashkil etish o'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni yo'lgan qo'yish uchun ta'lим loyihsanadi.

Loyihaviy ta'lим pedagogika fanida qariyb 300 yildan ortiq davr mobaynida qo'llanib kelinmoqda. Nemis pedagogi M. Knollning tadqiqtiga ko'ra, "loyiha" tushunchasining paydo bo'lishi XVI asrga taalluqli bo'lib, italiyalik me'morlarning me'morlikni fan deb e'lon qilib, uni o'quv fanlari darajasiga chiqargan holda o'z faoliyatlarini kasbga aylantirishga urinishlari bilan bog'liq.

XVIII asr oxirida muhandislik kasbi paydo bo'lishi natijasida o'quv loyihasi dastlab Fransiyada, so'ng Germaniya, Avstriya, Shveysariyada, XIX asr o'rtalarida esa AQShdag'i texnika va sanoat oliy maktablarida qo'llanila boshlangan.

"Loyiha" atamasi ijtimoiy fanlar sohasiga texnika sohasidan o'tgan bo'lib, "Loyiha (lotincha "projectus") aniq qoidalarga muvofiq u yoki bu soha holatini qayta qurishning asosiy g'oyasi"ni anglatadi. Loyihaning turli xil ko'rinishlari mavjud:

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

- biror bino, inshootni barpo etish maqsadida yoki muayyan bir buyumni yaratishga doir tayyorlangan hujjatlar (hisob-kitoblar, chizma, maketlar) majmui ;
- biror hujjatning oldindan tuzilgan matni;
- reja, mo'ljal, g'oya .

Ta'lim jarayonidagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatni rejallashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo'lgan mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi loyihasini amalga oshirishda uning shaxsiy sifatlari, ya'ni, kasbiy mahorati, motivatsiya, pedagogik qobiliyat, xarakter, temperament, ruhiy holati, o'z-o'zini anglashi va hokazolar namoyon bo'ladi, ta'lim jarayonini loyihalashda o'qituvchi loyihachi va bajaruvchi sifatida loyihani amalga oshirishning qulay yo'lini tanlaydi. Axborot ta'minotini loyihalash tamoyillari ta'lim jarayoni loyihasida axborot ta'minoti shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ta'minotni loyihalash tamoyili iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni ta'minlashni anglatadi. Ta'lim jarayonini ijtimoiy-iqtisodiy loyihalash ta'lim menedjerining vazifasidir. Hozirgi vaqtda boshlang'ich ta'limda zamonaviy darsni loyihalash masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. Maktab ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim asosiy rol o'ynaydi. Boshlang'ich ta'limning maqsadi boshlang'ich maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini shakllantirishdir, shuning uchun bizning fikrimizcha, o'quv faoliyati zamonaviy dars loyihalash ta'lim tamoyiliga asoslanishi kerak. Shuning uchun dars tipologiyasi, uning bosqichlari ta'lim faoliyatining tuzilishini hisobga olgan holda aniqlanishi kerak.

**LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH MOHIYATI** o'qituvchidan loyihaga asoslangan o'qitish bo'yicha mukammal bilim va tajribaning talab qilinishi; talabalardagi fan yuzasidan mavjud fundamental bilimlarga asoslanish, yangilarini o'zlashtirishga rag'batlantirish; haqiqiy muammolarni o'rganish uchun birgalikda ishlash va jarayonda o'quv dasturiga muvofiq ko'nikmalarni shakllantirish; mashaqqatli, ijodkorlikka asoslangan, erishish mumkin bo'lgan, qo'llab-quvvatlanadigan, uzoq muddatga mo'ljalangan; bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan, talabalarning bilim, ko'nikmalari va bilimsizlik sohasiga yo'naltirishga qaratilgan; loyihaga asoslangan o'qitish amaliyoti vositasida talabalar, o'qituvchilar, mакtablar, ta'lim tashkilotlariga o'z amaliyotini takomillashtirish, tizimlashtirish va baholashga ko'maklashish; ijtimoiy buyurtma va standartlarga asoslangan mazmunni, shuningdek, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, muloqot qilish, o'z-o'zini boshqarish, loyihalarni boshqarish va kollaborativlik kabi ko'nikmalarni qamrab olish; olib borilayotgan fan yoki o'quv dasturini o'zlashtirilganlik darajasidan kelib chiqib belgilash, sinflar kesimida soddadan murakkabga olib boruvchi jarayonni kuzatish; bilim, tushunish, anglash, jamoada ishlash, o'zgalarни eshitish, o'z fikrini asoslash, mas'uliyat, tirishqoqlik, muvaffaqiyatga eltuvchi ko'nikmalar zanjirini vujudga keltirish; mahsulotni yarata olish yoki taqdimot qilish zaruriyatini tushuntira olish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich ta'limni axborotlashtirish sharoitida ta'limni loyihalash o'qituvchidan yuksak bilim, salohiyat, malaka va hozirgi zamon axborot texnologiyasini kuchli bilishni talab etadi. Shunday ekan o'qituvchi har bir darsni loyihalashi uchun o'sha fan yuzsidan zarur bilimlarni bilibgina qolmasdan, u bilimlarni qanday qilib loyihalash asosida o'quvchilarga yetkaza olishni bilishi kerak. Ya'ni birinchi navbatda o'qituvchi yaratuvchan bo'lishi va innovatsiyalardan samarali foydalana olishi kerak. Har bir dars loyihasini tuzib o'quvchiga qiziqarli asosda yetkaza olishi kerak. Shundagina bugungi axborotlashgan ta'limda dars jarayonini loyihalashi mumkin bo'ladi.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
2. Sulaymanova D.N. Loyihaga asoslangan o'qitish(PLB) bo'lajak o'qituvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantiruvchi texnologiya sifatida "RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIKPEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI" 2023-yil 2-iyun.
3. Otaxonov N.A., Aldashev I.T. "BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONINI AXBOROTLASHTIRISH OMILLARI" "Экономика и социум" №2(81) ч.1 2021
4. Husenova A.Sh. "BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI VA O'QISH DARSLARINI INTEGRATSIYALASHDA O'QITUVCHI FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH METODIKASI" Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Buxoro 2023
5. Haydarkulova M.Z. "THE USE OF THE PRINCIPLE OF DESIGN EDUCATION BY PRIMARY SCHOOL TEACHERS" Сборник материалов XVII Международной научно-теоретической конференции молодых ученых высших учебных заведений России, Узбекистана, Таджикистана 26 апреля 2024г.
6. Haydarqulova M.Z. "BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINI TA'LIM MAZMUNINI LOYIHALASHGA O'RGATISH" Ta'lim va innovatsiyalar jurnali №9 2024